

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARGA ODOB-AXLOQ QOIDALARINI SHAKLLANTIRISH

*Andijon Viloyat Ulug'nor tumani 7-son DMTT direktori  
Usmonova Shohidaxon Arabboyevna*

**Annatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarda va xodimlarda ta'lim tarbiyani va odob-axloq qoidalarini shakllantrish va takomillashtrish haqida aytib o'tilgan.

**Аннотация:** в данной статье описывается формирование и совершенствование образовательно-нравственных норм обучающихся и сотрудников системы дошкольного образования.

**Abstract:** this article describes the formation and improvement of education and moral standards of students and employees in the preschool education system.

**Kalit so'zlar:** odob-axloq, maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim tarbiya, xodimlar, kasbiy faoliyat, kasbiy odob-axloq.

**Ключевые слова:** этика, система дошкольного образования, образование, сотрудники, профессиональная деятельность, профессиональная этика.

**Key words:** ethics, preschool education system, education, employees, professional activity, professional ethics.

*Tarbiya aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib bolalarning ijobiy-ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ularini uyg'unlashtirish asosida insonparvarlik, mehribonlik, himmatlilik, o'zaro g'amxo'rlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam, o'z faoliyatini mustaqil ravishda idora etish, kattalar topshirig'ini bajarish, mustaqillikni namoyon qila bilish, batartiblik kabi his tuyg'ular hisobga olinadi.*



*Axloq-odob qoidalari* –bu jamiyat hayotining barcha qatlamlarida turli shakllarda namoyon bo‘luvchi huquqiy, axloqiy, an'anaviy va shu kabi odamlarning xulq-atvori, xatti-harakatlariga xizmat qilgan qat'iy normalar, tavsiyalar, talablar yig‘indisidir. Odob-axloq qoidalari Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini yuksak huquqiy ong, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga hamda huquqbuzarlikning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘z navbatida egallab turgan lavozimidan qat'i nazar Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy odob-axloqining umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig‘indisidan iboratdir.

*Odob-axloq qoidalarini shakllantirishning ahamiyati*

- **Shaxsiy tarbiya:** Bola kichik yoshdan boshlab o‘zini tuta olish, xulq-atvorni nazorat qilish va boshqa insonlar bilan to‘g‘ri munosabatlarni shakllantirishni o‘rganadi.
- **Ijtimoiylashuv:** Bolalar jamiyatda o‘zlarini tutishning asosiy qoidalarini o‘rganadi (hurmat, samimiylik, yordam berish, halollik va boshqalar).
- **Jamoaviy muhitga moslashuv:** Maktabgacha yoshda bolaning guruhda ishlash va birga yashash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Xodimlar ishdan bo‘shvaqtlarida umumqabul qilingan odob-axloq normalariga rioya qilishlari va axloqqa zid keluvchi xulq-atvordan o‘zlarini tiyishlari kerak. Tizimi xodimlariga xodim o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg‘a yoki ish muomalasida mehmondo‘stlikning belgilari, qarz, kafolatlardir.



Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda ta'lim muassasasi jamoatchiligining boshqa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish,

insoniy qadriyatlarni himoya qilish, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifatini va o'z kasbining sharafini qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarida ishonch, mas'uliyat va adolatga asoslangan madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Qoidalarining maqsadi** – ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish, tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarga zamon talablariga muvofiq milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berish, shaxs va uning qadr-qimmati, huquqlarini hurmat qilish, odob-axloq madaniyati va muloqot qobiliyatini rivojlantirish, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, pedagogik jarayon ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga imkon beradigan do'stona ish muhitini yaratish hamda ta'lim muassasasi mulkini asrab-avaylashdan iborat.

#### Одоб-axloq qoidalarini shakllantirish bosqichlari

- **Bolalarning yosh xususiyatlarini aniqlash**
  - 3-4 yosh: Ushbu davrda bolalar asosiy odob-axloq qoidalarini anglashni boshlaydi. Masalan, salomlashish, ruxsat so'rash va minnatdorchilik bildirish.
  - 5-6 yosh: Bolalar axloqiy me'yorlarni tushuna boshlaydi va ularni ataylab amalga oshiradi. Masalan, yordam so'rash yoki o'z xatosini tan olish.
- **Ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'yinlar va mashg'ulotlar tashkil etish**
  - **O'yinlar:** Rol o'ynash o'yinlari orqali bolalar turli vaziyatlarda odob qoidalarini qanday qo'llashni o'rganadi. Masalan, "Do'stona munosabat", "Hurmatingni bildir" kabi o'yinlar.
  - **Masal va ertaklar:** Ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishda xalq ertaklari va axloqiy hikoyalardan foydalanish.
- **Ota-onalar bilan hamkorlik**
  - **Hamkorlikdagi mashg'ulotlar:** Ota-onalarga odob-axloq qoidalarini o'rgatish jarayonida qanday yondashuvlarni qo'llashni tushuntirish.
  - **Maslahat va tavsiyalar:** Uyda axloqiy qoidalarni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berish.



➤ **Bola faoliyatini nazorat qilish va tahlil qilish**

- Xulq-atvorning rivojlanishini doimiy ravishda kuzatish va uni yaxshilashga yo‘naltirish.
- Bolaning guruhdagi xatti-harakatlariga baho berish va rag‘batlantirish.

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida tatbiq etiladi, nodavlat va boshqa turdagi o‘quv muassasalari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega. Mazkur Qoidalariga rioya qilish ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun ta‘lim muassasalari hududi doirasida majburiy hisoblanadi. Shuningdek, Odob-axloq qoidalarida Maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlari tomonidan yuqoridagi prinsiplar doirasida o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qat‘iy majburiyatlar belgilab beradi. Maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlari xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi lozimligi belgilab berilgan.

**Shakllantirish jarayonidagi muhim qoidalar**

- **Davomiylik:** Tarbiya jarayoni muntazam bo‘lishi kerak. Bolalar odob-axloq qoidalarini kundalik hayotda doimiy qo‘llashga o‘rganishi kerak.
- **Yoshga moslik:** Har bir qoidani bolalarning yosh xususiyatlari va rivojlanish darajasiga moslashtirish muhim.
- **Qiziqarli metodlar:** Mashg‘ulotlar va o‘yinlar bolalar uchun qiziqarli va ma‘naviy jihatdan boy bo‘lishi kerak.

**Xulosa shuki:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda odob-axloq qoidalarini shakllantirish ularning shaxs sifatida rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon bolalarning ijtimoiy, ma‘naviy va psixologik rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Tarbiyachilar va ot-onalar hamkorlikda ishlashi va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi kerak. Shu yo‘l bilan bolalar jamiyatda o‘zlarini

tutishni o'rganadi va kelajakda madaniyatli shaxslar bo'lib voyaga yetadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga odob-axloq qoidalarini shakllantirish ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ma'naviy jihatdan shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayon davomiy, tizimli va bolalarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvni talab qiladi. Tarbiyachilar va ota-onalar birgalikda ishlagan taqdirda, bolalarning axloqiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin.

Odob-axloq qoidalarini shakllantirishda bolalarga o'yinlar, ertaklar, rol o'ynash mashg'ulotlari kabi qiziqarli metodlarni qo'llash zarur. Shuningdek, ular to'g'ri xatti-harakatlar uchun maqtov va rag'bat olish orqali motivatsiya qilinishi kerak. Tarbiyachilar o'zlarining xulq-atvori bilan bolalarga namuna bo'lib, ularni ijobiy munosabatlarga o'rgatadi.

Ota-onalar va tarbiyachilarning yaqindan hamkorligi, tizimli yondashuv va innovatsion usullardan foydalanish bolalarda axloqiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Natijada, bolalar o'zini jamiyatda munosib tutadigan, madaniyatli, ma'naviy barkamol shaxslar bo'lib ulg'ayadi.

### **FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.— T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni
3. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" O'zbekiston. 2017
4. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy

javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"  
O'zbekiston. 2017

5.Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini  
birgalikda barpo etamiz." O'zbekiston. 2017